

**ISLOM TARAQQIYOT BANKINING MABLAG'LARINI  
TADBIRKORLIK LOYIHALARIGA YO'NALTIRISH**

*Sadirdinov Oybek Saydamirovich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi Loyiha boshqaruvi*

*(Project Management) LB 24-15 guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur tezis Islom Taraqqiyot Bankining (IsDB) mablag'larini tadbirkorlik loyihalariga yo'naltirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning ahamiyatini o'rghanadi. IsDB tomonidan amalga oshirilgan loyihalar, ayniqsa kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, mahalliy sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tezisda, shuningdek, tadbirkorlik loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan omillar, moliyaviy yordamlardan qanday samarali foydalanish, va IsDB tomonidan amalga oshirilgan ba'zi muvaffaqiyatli loyihalar misollar orqali ko'rsatilgan.

**Аннотация:** этом тезис исследует важность обеспечения экономического роста и устойчивого развития в развивающихся странах путем направления средств Исламского банка развития (Isdb) на предпринимательские проекты. Проекты, реализуемые IsDB, особенно направлены на обеспечение экономической стабильности за счет развития малого и среднего бизнеса, создания новых рабочих мест, модернизации местной промышленности и внедрения инноваций. В этом тезисе также описаны факторы, необходимые для успешной реализации предпринимательских проектов, как эффективно использовать финансовую помощь, и некоторые успешные проекты, реализованные IsDB, на примерах.

**Abstract:** This thesis explores the importance of ensuring economic growth and sustainable development in developing countries by channeling funds from the

*Islamic Development Bank (Isdb) to entrepreneurial projects. The projects implemented by IsDB are particularly aimed at ensuring economic stability through the development of small and medium-sized businesses, creating new jobs, modernizing local industry and introducing innovations. This thesis also describes the factors necessary for the successful implementation of entrepreneurial projects, how to effectively use financial assistance, and some successful projects implemented by IsDB, using examples.*

**Kalit so'zlar:** Islom Taraqqiyot Banki, mablag'lar, tadbirkorlik loyihalari, iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, kichik va o'rta biznes, innovatsiyalar, moliyaviy yordam, sanoat rivojlanishi, startaplar, iqtisodiy barqarorlik.

**Ключевые слова:** исламский банк развития, фонды, предпринимательские проекты, Экономический рост, Устойчивое развитие, малый и средний бизнес, инновации, финансовая помощь, промышленное развитие, стартапы, экономическая стабильность.

**Keywords:** Islamic Development Bank, funds, entrepreneurial projects, Economic growth, Sustainable development, small and medium-sized businesses, innovations, financial assistance, industrial development, startups, economic stability.

### **Kirish**

Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) 1975 yilda tashkil topgan va islomiy moliya prinsiplari asosida iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xalqaro moliya muassasasi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi islomiy moliya vositalarini qo'llab-quvvatlash, rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o'sish va taraqqiyotni ta'minlashdir. Ushbu bankning mablag'larini tadbirkorlik loyihalariga yo'naltirish, iqtisodiy rivojlanishning samarali vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Islom Taraqqiyot Bankining faoliyat yo'nalishlari IsDB quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritadi:

- Investitsiyalar va kreditlar: Bank rivojlanayotgan davlatlarda infratuzilma,

energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa strategik sektorlarga mablag' ajratadi.

- Texnik yordam va maslahat: Bank tadbirkorlik sohasida ilmiy-texnikaviy yordam va maslahatlarni taqdim etadi.
  - Ijtimoiy rivojlanish: Bankning asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy infratuzilma, ta'lif, sog'liqni saqlash, va atrof-muhitni saqlash bo'yicha loyihalarga moliyaviy qo'llab-quvvatlashdir. Tadbirkorlik loyihalariga mablag' yo'naltirishning afzallikkari IsDB tomonidan tadbirkorlik loyihalariga mablag' yo'naltirilishi, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda bir qator afzallikkarga ega:
    - Yangi ish o'rinalarini yaratish: Bankning mablag'larini orqali kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratishga yordam beradi.
    - Mahalliy sanoatni rivojlantirish: Tadbirkorlik loyihalarini mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.
    - Texnologiya va innovatsiyalarni joriy etish: Bank mablag'larini orqali innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sanoatni modernizatsiya qilish imkoniyatlari yaratilib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.
    - Barqaror rivojlanish: IsDB tomonidan taqdim etilayotgan mablag'lar ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan, resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.
- Tadbirkorlik loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi omillar IsDB tomonidan mablag' ajratilgan tadbirkorlik loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun bir qator omillarni hisobga olish kerak:
- Iqtisodiy barqarorlik: Tadbirkorlik loyihalarining muvaffaqiyatiga mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, siyosiy muhit va iqtisodiy siyosatlar ta'sir qiladi.

- Moliyaviy sabr-toqat: Tadbirkorlar va investorlar tomonidan belgilangan moliyaviy maqsadlar va muddatlarga rioya qilish zarur.
- Mahalliy va xalqaro hamkorlik: Loyihalar mahalliy hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa moliyaviy muassasalar bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilishi lozim.
- Kadrlar tayyorlash va boshqaruv: Loyihalarni samarali amalga oshirish uchun malakali kadrlarni jalg qilish va rivojlantirish zarur.

IsDB mablag'larasi asosida amalga oshirilgan ba'zi tadbirkorlik loyihalari IsDB tomonidan bir qator muvaffaqiyatli tadbirkorlik loyihalari amalga oshirilgan. Masalan:

- Qishloq xo'jaligi va agroturizmni rivojlantirish: Bank qishloq xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirgan.
- Sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirish: Bank sanoatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar orqali raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlagan.
- Innovatsiyalar va startaplar: Startaplarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalar, yangi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirgan.

1-jadval

**«Kichik va o'rta korxonalarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash» loyihasi bo'yicha ITB va ITB (Rivojlanish uchun islom birdamlik jamg'armasi nomidan) mablag'larini qaytarish manbalari[12]**

Komponentlar nomlari	Qarz		<b>Qarzni qaytarish manbai</b>
	Ming AQSH dolları	foiz	
A-komponent. Moliyalashtirish va kafillik	37 500	93.75	

## ***Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari***

1. «Murobaha» tamoyili asosida kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish	30 000	75.00	«Biznesni rivojlantirish banki» ATB
2. «Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi» AJga yo'naltiriladigan mablag'lar	7 500	18.75	«Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi» AJ
B-komponent. Biznes-injenering va salohiyatni oshirishni qo'llab-quvvatlash	<b>1 750</b>	<b>4.375</b>	O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag'lari
S-komponent. Loyihani boshqarish va muvofiqlashtirish	<b>430</b>	<b>1.075</b>	O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag'lari
D-komponent. Audit xizmatlari	<b>120</b>	<b>0.3</b>	O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag'lari
Ko'zda tutilmagan xarajatlar	100	0.25	O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag'lari
Narxlar o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kutilmagan xarajatlar	100	0.25	
<b>JAMI</b>	<b>40 000</b>	<b>100</b>	

Yuqorida jadval ma'lumotlariga asoslanib shuni ta'kidlash joizki, Islom taraqqiyot banki tomonidan ajratilayotgan mablag'larni qaytarish foizlari va manbalari belgilangan.

### **Xulosa**

Islom Taraqqiyot Bankining mablag'larini tadbirkorlik loyihalariga yo'naltirish, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning samarali usulidir.

Islom Taraqqiyot Bankining tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Islomiy moliyaviy vositalar asosida ajratilayotgan mablag'lar orqali kichik va o'rta biznes subyektlari o'z faoliyatini kengaytirish, yangi ish o'rinalarini yaratish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatning eng faol qatlamlarini rivojlanishga jalb qilish mumkin. Kelgusida ITB mablag'larini raqamli texnologiyalar, yashil iqtisodiyot va eksport salohiyatini oshiruvchi loyihalarga yo'naltirish orqali mamlakatlar barqaror taraqqiyot yo'lida muhim bosqichlarni bosib o'tishlari mumkin. Shunday ekan, Islom Taraqqiyot Banki bilan samarali hamkorlik va puxta strategik yondashuv tadbirkorlik sohasini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lib qoladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar
  1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 26-dekabr.
  2. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.
  3. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni 2005yil 25-aprel.
  4. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni 2012-yil 2-may .
  5. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y.
  6. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi Qonuni. 2006-yil 15-sentabr.
  7. “Kichik tadbirkorlik subyektlarini milliy valutada kreditlash tartibi

to‘g‘irisida” gi Nizom2013-yil 27-dekabr.

8. “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 fevraldag'i Qarori.

9.“Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2003- yil, 23- dekabr.

10. “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-apreldagi Qarori.

11. “Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdag'i PQ-2844 Qarori.

12. Islom taraqqiyot banki ishtirokida «Kichik va o‘rta korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2024 yildagi 903-sun